



## XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



### Korxonalar va tashkilotlar soni (2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



#### **Yuridik shaxs:**

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

*Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.*

*Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.*


### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-iyun oylarida, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**  
(2022- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2022- yilning yanvar-iyun oylarida 3 496 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 2 927 ta, xususiy korxonalar 182 ta, oilaviy korxonalar 164 ta, muassasalar 81 ta va boshqalar 142 tani tashkil etdi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi**  
(1- iyul holatiga ko‘ra)



**Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)




2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 9 616 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida - 6,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,5 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda - 1,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o‘shidir.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda - 87,2 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,3 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 94,7 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) tashkil etgan.

## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 291 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,1 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili fuqarolik obyektlarini qurishda - o'tgan yilga nisbatan 14,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 9,1 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida - 0,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,8 %) o'sishidir.


Bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan - 98,2 % ni (jami qurilishdagi ulushi 61,1 %) tashkil etgan.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 12 688 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan - 9,6 % ga (jami savdodagi ulushi 64,3 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashda o'tgan yilga nisbatan - 15,7 % ga (jami savdodagi ulushi 7,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan - 13,7 % ga (jami savdodagi ulushi 28,3 %) o'sishidir.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 965 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar - 1,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,8 %), yashash bo'yicha xizmatlar - 8,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,2 %) o'sishidir.



**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni**  
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 587 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,7 % ni tashkil etdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar sonidan aloqa yo'nalishida - 1,1 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 45,6 %), axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan 1,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,7 %), nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan - 10,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 9,4 %) o'sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan - 93,9 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 29,0 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan - 88,9 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,1 %), dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishda o'tgan yilga nisbatan - 70,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,2 %) tashkil etadi.

### Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra 3 247 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 271 taga yoki 9,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 983 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 182 taga yoki 6,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-iyun oylarida 164 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra 31 894 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 743 taga yoki 13,3 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 29 791 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 593 taga yoki 13,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 927 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 254 taga yoki 9,5 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra 408 tani tashkil etib, ulardan 392 tasi yoki 96,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 21 taga yoki 5,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 31 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
davlatlar kesimida soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Jami</b>	<b>189</b>	<b>260</b>	<b>324</b>	<b>369</b>	<b>392</b>
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9	20	25	23	26
Sanoat	142	166	188	204	199
Qurilish	7	14	21	24	31
Savdo	16	27	39	55	65
Tashish va saqlash	2	2	3	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	7	9	10	10
Axborot va aloqa		3	4	4	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	5	5	6
Boshqa turlar	6	20	30	40	46


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>392</b>	<b>250</b>	<b>142</b>
shaharlar:			
Andijon sh.	156	86	70
Xonobod sh.	18	12	6
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	30	21	9
Asaka	29	20	9
Baliqchi	8	5	3
Bo'ston	8	8	-
Buloqboshi	17	10	7
Jalaquduq	16	7	9
Izboskan	7	3	4
Ulug'nor	4	3	1
Marhamat	14	11	3
Oltinko'l	21	15	6
Paxtaobod	9	6	3
Xo'jaobod	14	11	3
Shahrixon	28	21	7
Qo'rg'ontepa	13	11	2

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 31,5 %, Asaka 7,8 %, Andijon 7,1 %, Shahrixon 6,8 %, Baliqchi 5,4 %, Izboskan 5,4 %, Oltinko'l 4,9 %, Marhamat 4,7 %, Xo'jaobod 4,7 %, Paxtaobod 4,4 %, Qo'rg'ontepa 4,4 %, Jalaquduq 4,0 %, Buloqboshi 2,9 %, Ulug'nor 2,0 %, Bo'ston 1,9 % tumanlari va Xonobod shahri 2,1 % ni tashkil etadi.




**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni


(2022- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (23,8 %), Andijon (18,3 %), Shahrixon (12,2 %), Asaka (15,3 %), Qo'rg'ontepa (6,1 %), Baliqchi (4,9 %), Oltinko'l (3,7 %), Izboskan (1,8 %), Jalaquduq (1,8 %), Buloqboshi (1,2 %), Paxtaobod (1,2 %), Ulug'nor (0,6 %) tumanlari va Andijon (7,9 %), Xonobod (1,2 %) shaharlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tuzidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining % dagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

**Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.**